

Qutbiddin Muhitdinov (1906-1983)



Qutbiddin Muhitdinov (1906-1983)



Qutbiddin Muhitdinov (1906.19.11 — Samarqand viloyati Urgut tumani — 1983.17.12) — matnshunos, manbashunos, lugʻatshunos olim. Filologiya fanlari nomzodi (1972).

1956—61 yillarda Tojikiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida, 1961—1982 yillarda Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot hamda Sharqshunoslik institutlarida katta ilmiy xodim boʻlib ishlagan.

Qutb, S. Saroyi, Xoʻjandiy asarlarining zamonaviy imloda nashr etilishiga, Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻatini tuzish, izohlash va undagi arabcha, forsha soʻzlarni, murakkab baytlarni sharhlashga katta hissa qoʻshgan. Mahdiyxonning turkiycha-forsha «Sangloh» lugʻati ustida ish olib borgan.

2023-09-14 16:32:16